




SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2025-yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'rin tutib, aholi bandligini oshirish, turmush sifatini yaxshilash va resurslardan samarali foydalanishga hissa qo'shadi. Globalashuv va texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan xizmatlar innovatsiyalar, samaradorlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlik uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xizmatlar sohasi ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlashga, davlat, biznes va aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'sishini rag'batlantiradi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2025-yil yanvar)

58,6



**Xizmatlar sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi, % da**

1 075,3



**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi, ming
so'mda**

62,7




**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi, % da**



Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(1-fevral holatiga ko'ra)

2025-y.

58,6 %

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi % da

49,1 %

2021-y.

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(yanvar)

80,0 %


2025-y.

Jami yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi % da

2021-y.


52,9 %

Soni, birlikda.




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1-fevral holatiga ko'ra)





Soni, birlikda



Soni, birlikda

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar)




Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi, % da (2025-yil yanvar)



¹⁾ Grafikda va keyingi o'rinlarda 2021-2023-yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan, 2024-yil yanvar oyi hajmi va 2025-yil yanvar oyi uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda shakllantirilgan.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Tuman (shahar)lar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2025-yil yanvar)


Tuman (shahar)lar nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Samarqand viloyati¹⁾	4 573,2	100,0	116,0
Samarqand sh.	1333,5	29,2	126,9
Kattaqo'rg'on sh.	83,8	1,8	110,9
Oqdaryo	98,1	2,1	112,1
Bulung'ur	80,8	1,8	108,8
Jomboy	123,1	2,7	109,8
Ishtixon	105,0	2,3	109,9
Kattaqo'rg'on	113,5	2,5	117,8
Qo'shrabot	57,1	1,2	111,0
Narpay	94,7	2,1	111,1
Payariq	126,4	2,8	109,0
Pastdarg'om	200,7	4,4	108,0
Paxtachi	59,6	1,3	113,4
Samarqand	190,3	4,2	111,6
Nurobod	57,9	1,3	108,0
Urgut	204,8	4,5	110,8
Toyloq	123,9	2,7	109,4

¹⁾Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar)



Tuman (shahar)lar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2025-yil yanvar)




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **62,7** foizni, shu jumladan, **28,2** foizini kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Tuman (shahar)lar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2025-yil yanvar)




Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, xizmatlar sohasiga tegishli G dan S gacha bo'limlarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2025-yil yanvar)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	4 573,2	100,0	116,0
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	194,1	4,2	115,2
Moliyaviy xizmatlar	475,6	10,4	112,6
Transport xizmatlari	929,1	20,3	127,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	730,3	16,0	110,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	1267,0	27,7	113,2
Savdo xizmatlari	735,6	16,1	116,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	89,7	2,0	108,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	174,3	3,8	114,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	102,3	2,2	114,3
Ijara xizmatlari	101,3	2,2	103,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	129,0	2,8	110,8
Shaxsiy xizmatlar	163,8	3,6	107,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	24,9	0,5	101,0
Boshqa xizmatlar	186,5	4,1	114,4

Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar) ¹⁾

■ Hajmi, mlrd so'mda
● O'sishi (kamayishi), % da



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **78,6** foiz.

Samarqand shahrida transport xizmatlari hajmi **368,8** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlarining o'sishi **39,7** foiz darajasida qayd etildi.

Tuman (shahar)lar kesimida transport xizmatlari (2025-yil yanvar)


Samarqand sh.	368,8	⚙️ +71,4
Samarqand	54,3	⚙️ +6,8
Urgut	52,7	⚙️ +7,6
Pastdarg'om	52,0	⚙️ +11,4
Jomboy	37,9	⚙️ +7,6
Payariq	32,7	⚙️ +9,4
Kattaqo'rg'on	32,1	⚙️ +3,9
Toyloq	31,3	⚙️ +3,0
Ishtixon	31,1	⚙️ +7,5
Narpay	30,3	⚙️ +7,7
Oqdaryo	375,7	⚙️ +7,5
Bulung'ur	20,3	⚙️ +7,8
Kattaqo'rg'on sh.	20,2	⚙️ +3,9
Qo'shrabot	17,1	⚙️ +8,1
Paxtachi	16,7	⚙️ +5,2
Nurobod	14,6	⚙️ +7,4

■ Hajmi, mlrd so'mda ⚙️ O'sishi (kamayishi), % da

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar) ¹⁾

2025-yilning yanvar oyida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **730,3** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **16,0** % ni tashkil etdi.

■ Hajmi, mlrd so'mda
● O'sishi (kamayishi), % da



Samarqand sh.	178,9	+9,0
Samarqand	53,3	+7,8
Urgut	51,8	+8,7
Pastdarg'om	50,5	+11,7
Jomboy	37,5	+8,8
Toyloq	30,8	+4,0
Kattaqo'rg'on	31,5	+8,9
Payariq	31,9	+10,5
Ishtixon	30,8	+8,8
Narpay	29,9	+8,9
Oqdaryo	28,0	+8,8
Kattaqo'rg'on sh.	19,8	+4,9
Bulung'ur	20,1	+9,1
Qo'shrabot	16,6	+9,1
Paxtachi	15,7	+5,5
Nurobod	14,5	+8,9

Tuman (shahar)lar kesimida avtomobil transporti xizmatlari
(2025-yil yanvar)



2025-yil yanvar oyida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi **20,3** foizga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismini taksi xizmatlari egalladi – **70,3** %.

■ Hajmi, mlrd so'mda ■ O'sishi, % da


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar)



Tuman (shahar)lar kesimida moliyaviy xizmatlar (2025-yil yanvar, mlrd so'mda)

Samarqand sh	221,7
Kattaqo'rg'on sh	53,5
Oqdaryo	40,2
Bulung'ur	32,9
Jomboy	18,6
Ishtixon	18,2
Kattaqo'rg'on	15,7
Qo'shrabot	12,6
Narpay	12,6
Payariq	9,4
Pastdarg'om	9,3
Paxtachi	7,6
Samarqand	7,4
Nurobod	7,4
Urgut	4,8
Toyloq	3,6

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2025-yil yanvar, % da)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2025-yil yanvar 12,6** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Samarqand shahrining ulushi **10,0** foizni yoki **202,5** mlrd so'mni tashkil etdi. **2024-yil yanvar** oyiga nisbatan Narpay tumani yuqori o'sish qayd etildi – **28,9** %.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar) ¹⁾

■ Hajmi, mlrd so'mda ○ O'sishi (kamayishi), % da




2025-yilning yanvar oyida xizmatlarning umumiy hajmida (yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda) yashash va ovqatlanish xizmatlarining ulushi **27,7** foizni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **26,9** %.

Tuman (shahar)lar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2025-yil yanvar)



Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar) ¹⁾

2025-yilning yanvar oyida chakana savdoning ulushi (yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda) umumiy savdo xizmatlarining **16,1 %** ni tashkil etdi.



Tuman (shahar)lar kesimida savdo xizmatlari



	(2025-yil yanvar)		
Samarqand sh.	226,9	+	+17,6
Samarqand	56,0	+	+14,2
Pastdarg'om	47,6	+	+14,9
Urgut	35,6	+	+6,1
Kattaqo'rg'on	34,6	+	+41,1
Jomboy	33,7	+	+10,8
Nurobod	30,8	+	+3,3
Oqdaryo	29,0	+	+16,6
Payariq	26,2	+	+12,7
Ishtixon	26,0	+	+10,7
Narpay	23,4	+	+13,7
Bulung'ur	19,0	+	+7,4
Kattaqo'rg'on sh.	18,0	+	+15,5
Paxtachi	14,0	+	+20,7
Qo'shrabot	13,7	+	+14,1
Toyloq	11,8	+	+23,8

Hajmi, mlrd so'mda

✦ O'sishi, % da



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi.


2025- yilning yanvar oyidagi ulushi 3,0 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi

(yanvar) ¹⁾




Tuman (shahar)lar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2025-yil yanvar)



Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar)

■ Hajmi, mlrd so'mda
● O'sishi, % da




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2025-yil** yanvar oyidagi ulushi **54,9** foizni tashkil etdi.



Tuman (shahar)lar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2025-yil yanvar, mlrd so'mda)




Tuman (shahar)lar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Samarqand shahriga to'g'ri keladi.


2025-yilning yanvar oylari davomida mazkur hududda ushbu turdagi xizmatlar hajmi **108,3** mlrd so'mni yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **62,2** foizini tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida boshqa xizmatlarning hissasi salmoqli bo'lib, **2025-yil yanvar** oyidagi ulushi **52,8** foizni tashkil etdi. Shifoxona muassasalari xizmatlari esa **30,9** foizni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar esa **16,3** foizni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar)



Tuman (shahar)lar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2025-yil yanvar)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi


(yanvar) ¹⁾



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **81,8** foizni tashkil etdi.

Tuman (shahar)lar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2025-yil yanvar)



■ Hajmi, mlrd so'mda □ O'sishi (kamayishi), % da

Ijara xizmatlari dinamikasi (yanvar) ¹⁾



Tuman (shahar)lar kesimida ijara xizmatlari (2025-yil yanvar, mlrd so'mda)



2025- yilning yanvar oyida
ijara xizmatlari hajmi **101,3**
mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning
umumiy hajmida **yengil**
avtomobillar va yengil
avtotransport vosita-larining
ijarasi bo'yicha xizmatlarning
salmogli qismi – **38,9** foizni
tashkil etadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi


(yanvar) ¹⁾

■ Hajmi, mlrd so'mda
● O'sishi (kamayishi), % da



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **26,5** foizini tashkil etadi.


Tuman (shahar)lar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2025-yil yanvar)



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar)



Tuman (shahar)lar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2025-yil yanvar, mlrd so'mda)



2025-yilning yanvar oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **24,9** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida ulushi **0,5** foiz-ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (shartnoma) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.